

## XI–XV ASRLARDAGI LUG‘ATLARDA KELITIRILGAN DORIVOR O‘SIMLIKLAR VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATI

*Ergasheva MahliyoXon*

*Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Hozirgi kunga kelib dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab yanada ortib bormoqda. Shuning uchun dorivor o‘simliklarni o‘rganish, ularning kasalliklarga ta‘sir kuchini bilish, ulardan dori-darmon vositalarini tayyorlash dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Ushbu maqolamizda qadimgi zamonlarda yaratilgan lug‘atlarda keltirilgan dorivor o‘simliklarni o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma‘lumot beriladi.

**Kalit so‘z:** Dorivor, shifobaxsh, isiriq, toshyorar, dorixona, tibbiyot, sistema, yo‘tal.

Baxtiyor Baxshullayevich Toxirovning tasnif qilishicha: Dorivor o‘simliklar tabiatda va inson hayotida katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonda yovvoyi holda o‘sadigan va o‘stiriladigan o‘simliklar soni 4150 ga yetadi. Shulardan 577 tasi shifobaxsh xususiyatga ega. Ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan, dorivor preparatlarining qariyb 45 % i o‘simliklardan ajratib olinadi yoki ulardan tayyorlanadi. Dorivor o‘simliklar turli xil sistematik guruhlariga ega. Ular turli xil zonalarda tarqalgan. Dorivor o‘simliklardan olinadigan mahsulotlar ularning tuli organlaridan olinadi. Chunki kerakli bo‘lgan moddalar o‘simlik turiga yashash sharoitiga qarab turli organlarida joylashadi. Dorivor o‘simliklar juda ko‘pgina kasalliklarga da‘vo bo‘ladi. Masalan:

1. Shamollashga;
2. Yallig‘lanishga;
3. Oshqazon- ichak;
4. Nafas yo‘llari;
5. Qon ketganda;
6. Qon bosimida;
7. Ichni haydash;

8. Yo‘talga qarshi va boshqa kasalliklarga dori vositalari tayyorlashda qolaversa tabiiy damlama, qaynatma, nastoykalar tayyorlashda ham keng qo‘llaniladi. Men ham bu tasnifni yoqlayman, sababi bu tasnif hozirgi kunda juda ham qo‘l kelyapti. Oxirgi 2-3 yil ichida dunyo bo‘ylab pandemiya balosi tarqaldi shunga ham xalq tabobatida qo‘llanilib kelingan turli xil giyohlardan dorilar tayyorlanib insonlarni sog‘lig‘i uchun taqdim qilindi.

O‘simliklar ham o‘z navbatida bir necha turlarga bo‘linadi. Shulardan eng muhimlari dorivor o‘simliklardir. Biz bu maqolamiz orqali qadimgi davrda yaratilgan

asarlardagi dorivor o‘simliklarni lingvistik tahlilga tortdik. “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan ayrim dorivor o‘simliklarni so‘z va so‘z birikmalari asosida tahlil qilamiz. Masalan: Ögür (ýгyp)–kunjut(3-bet),İsriq(исрик)–isiriq (53-bet),Ulyan (ульан)–hushbo‘y bir o‘simlik (60-bet),Їaxşu (чахшу)–xuzaz o‘simligi.U bilan ko‘z og‘irligi davolanadi.U so‘z asli turkcha emas (66-bet),Awilqu (авилку)–qizil mevali bir daraxt.Mevasining suvi tutmoch oshiga solinadi,po‘stlog‘i bilan ko‘z og‘rig‘i davolanadi.U bilan kiyimlar ham bo‘yaladi (198-bet),Bezinc (безинч)–tanasi va barglari qizil bo‘lgan bir turli o‘simlik.U bog‘larda bitadi;malham sifatida ishlatiladi (387-bet) kabi o‘simliklar so‘z shaklida; yag‘ ögüri–kunjut (3-bet),.Sig‘un ot–ildizi odam shaklida o‘sadigan bir o‘simlik.U bilan jinsiy aloqa qilishdan ojizlanib qolgan kishilar davolanadi.Forslar buni istorang deydilar.Uning erkak va urg‘ochisi bor.Erkagidan erlar,urg‘ochisidan xotinlar foydalanadilar (65-bet) kabi o‘simliklar so‘z birikmasi shaklida ifodalangan.

Lug‘atlarda keltirilgan dorivor o‘simliklarni leksik tahlil asosida ko‘rib o‘tamiz.Masalan: "Devonu lug‘otit - turk" asarida keltirilgan Ögür (ýгyp)–kunjut (3-bet),"At tuhfat zakiyati fit-tib"asarida Кунжи– kunjut (67-bet) tarzida keltirilgan."At-tuhfat zakiyati fit-tib"asarida keltirilgan Тиканак–tikan(258-bet)so‘zi,"Muhokamat ul-lug‘atayn"asaridaХор–tikan (50-bet) shaklida keltirilgan.Endi esa bu lug‘atlarda keltirilgan o‘simliklarni tub hamda yasama otlarga ajratib chiqamiz.Masalan: "At tuhfat zakiyati fit-tib"asarida keltirilgan tub otlar quyidagilar: Тари – tariq (55-bet),От–achchiq o‘t(236-bet),Мази–dori o‘simlik (233-bet),Бус – o‘t,yem(86-bet),Банг–nasha(91-bet),Тара–sabza,ko‘kat(27-bet),Кунжи–kunjut(67-bet)kabi o‘simliklar tub o‘simliklar hisoblanadi.Endi esa yasama otlarni ko‘rib o‘tamiz:Тамар – o‘simlik (253-bet),Татли камиш– shirin qamish (255-bet),Топалок – bir xil o‘simlik (262-bet),Ширик – bir xil o‘simlik(276-bet),Бақла– o‘simlik(95-bet),Агаш– daraxt (164-bet),Ашлик–g‘alla(173-bet),Берчимак–bir xil o‘simlik(182-bet),Жарпуз– yalpiz (205-bet),Арпа– арпа (72-bet),Жавшан – o‘simlik (73-bet),Жушкун– suvda o‘sadigan o‘t (81-bet) kabi o‘simliklarni yasama otlarga misol qilishimiz mumkin.

Dorivor o‘simliklardan ko‘proq, anor, achchiqmiya, bodom,dorivor gulxayri, yong‘oq, jag‘-jag‘, zubtutum, isiriq, itburun, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo‘t, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, yalpiz, kiyiko‘t, tog‘rayhon, qizilcha, qoqio‘t va boshqalari tarqalgan. Achchiqmiyadan paxikarpin, oqquraydan pesni davolashda qo‘llaniladigan psoralen, isiriqdan garmin, itsigakdan anabazin, omonqoradan galantamin, shildirboshdan sferofizin alkaloidlar olinadi. Anor pustidan gijja haydovchi pelterin ekstrakt tayyorlanadi. Dorivor gulxayri preparatlari balg‘am ko‘chiruvchi va yumshatuvchi, jag‘-jag‘dan tayyorlangan dorilar qon ketishini to‘xtatuvchi, pista va choyo‘tdan tayyorlangan dorilar me‘da ichak kasalliklarini

davolashda ishlatiladi. O'zbekistonda eng keng tarqalgan qadimgi dorivor o'simliklardan rayhon (bazilik), kashnich (koriander), arpabodiyon, yalpiz, sebarga hisoblanadi. Yovvoyi o'simliklarni tekisliklarda va tog'larda topish mumkin, shuningdek, bozorlar va dorixonalarda sotib olish mumkin.

Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 10-aprel kuni yana bir muhim "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatda aholiga tibbiy sanitar yordam ko'rsatish, turli xil, ayniqsa, surunkali kasalliklar profilaktikasida va ularni davolashda sifat, xavfsizlik va samaradorlik jihatidan amalda sinalgan xalq tabobatini rivojlantirish masalasi qaror topgan.

Qarorning asosiy maqsadi, xalq tabobatining kasalliklarni profilaktika qilish, tashxis qo'yish va davolash bo'yicha samarali usullarini zamonaviy tibbiyot amaliyotiga jadal integratsiyalash, fuqarolar salomatligini yanada mustahkamlash, ushbu sohada mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish tizimini yo'lga qo'yishdir. Mazkur qaror bilan shu yo'nalishda mavjud bo'lgan qator masalalar o'z yechimini topadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. G'afur G'ulom nomidagi Toshkent nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2017.-488 bet.
2. "At-tuhfatuz zakiyatu fil lug'otit turkiya"(Turkiy til haqida noyob tuhfa") asari O'zbekiston "Fan" nashriyoti, Toshkent 1968-yil.
3. Toxirov B.B. Dorivor o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida yangi ma'lumotlar. Science and Education 3 (1), 112-118, 2022.
4. S.Muhammadxonov, F.Jonguzarov "O'simlikshunoslikka oid ruscha—o'zbekcha izohli lug'at".
5. "Muhokamat ul-lug'atayn" asari Alisher Navoiy. Porso Shamsiyev tarjimasini.
6. Xidirova, I., & Xidirova, N. (2021). Gender Characteristics of Family Speech (On the Example of the Uzbek Family). EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 1(2), 196-199.
7. Raxmonjonova, G., & Xidirova, I. (2022). CHORTOQ SO 'ZINING KELIB CHIQUISHIGA OID ILMIY QARASHLAR. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 188-189.
8. 111. Xidirova, I. ., & Jo'rayeva, M. (2023). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF DIALECTISMS USED IN THE WORK OF ART (IN THE EXAMPLE OF THE WORK "ROCKS ALSO CRY"). Modern Science and Research, 2(3), 142-144.
9. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research, 2(3), 138-141.
10. www.ziyo.uz.